

*Uzakova L.A. Oziq-ovqat texnologiyalari va muhandislik xalqaro instituti o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti Farg'ona, O'zbekiston Respublikasi*

*Uzakova L.A. Lecturer of International institute of food technology and engineering, Fergana state university, Fergana, Republic of Uzbekistan*

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TO'Y BILAN BOG'LIQ LEKSIK  
BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI: TO'Y  
MAROSIMLLARIDA IRIM-SIRIMLAR BILAN BOG'LIQ  
TUSHUNCHALARNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR**

**Linguistic-cultural study of lexical units related to wedding in Uzbek and English languages: lexical units expressing concepts related to wedding superstitions**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada to'y bilan bog'liq irim-sirimlar tushunchalarni ifodalovchi birliklarga ta'rif berilgan. O'zbek va ingliz to'y marosimlarini ifodalovchi irim-sirimlar va ritualari organib chiqilib ularning ma'nosiga xam tohtalib o'tilgan, shuningdek, to'y so'zi bilan bog'liq urf-odat va marosimlar keltirilgan va muhokama qilingan.*

**Annotation.** *The article describes the units that represent concepts related to wedding superstitions and rituals. Uzbek and English superstitions connected with wedding ceremonies and rituals were studied and their meanings were discussed, as well as customs and rituals related to the word wedding were presented.*

**Kalit so'zlari:** *to'y, irim sirimlar, o'zbek, ingliz, leksema, nikoh, urf-odat, marosimlar*

**Key words:** *wedding, superstitions, Uzbek, English, lexeme, wedding, tradition,*

## *ceremonies*

O'zbek va ingliz xalqining to'y urf-odat va marosimlari zamirida qadimgi diniy e'tiqodlar: totemizm, anemizm, fetishizm, sehrgarlik, tabiat va ajdodlar ruhiga sig'inish, shomanizm va zardushtiylik izlari yotadi.[1]Asosiy masala haqida gapirishdan oldin urf-odatlar, marosimlar va boshqa tushunchalar nimani anglatishini o'zimiz uchun aniqlab olsak, maqsadga muvofiq bo'lardi. Odat bu an'ananing tarkibiy qismidir. Irim-sirim esa - bu jismoniy bo'lmagan (ya'ni, g'ayritabiiy) sabablarga ishonish - bir hodisa boshqasini keltirib chiqaradi, bu ikki hodisani bog'laydigan hech qanday jismoniy jarayonsiz holat.[2]Irim o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha tasvirlangan: irim biror maqsad, niyat bilan qilingan xurofiy tadbir, amal. Qabristonga borishga irim qilmoq.[3]Superstition/irim leksemasi ingliz tilining Oxford lug'atida quyidagicha izohlangan: the belief that particular events happen in a way that cannot be explained by reason or science; the belief that particular events bring good or bad luck. Most cultures have their superstitions. According to superstition, breaking a mirror brings bad luck.[4]Shuningdek, De Paola, Gioia and Scoppa (2014) ga ko'ra irim-sirimlar odatda omad, bashorat va ruhiy mavjudotlar bilan bog'liq e'tiqod va amaliyotlarga, xususan, kelajakdagi voqealarni aniq, bir-biriga bog'liq bo'lmagan oldingi voqealar bilan oldindan aytish mumkinligiga ishonishga nisbatan qo'llaniladi.[5]Dunyoda din, eski hikoyalar, afsonalar va shaxsiy tajribaga asoslangan va to'y marosimlari bilan ko'plab irim-sirimlar mavjud. Bunday irim-sirimlar turli ijtimoiy vaziyatlarda odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin.[6] Hozirgi vaqtda irim-sirim ilmiy fikrlash va bilimlarga asoslanmagan yoki ularga zid bo'lgan tushunchalarga nisbatan qo'llaniladi.(Almond, Chee, Sviatschi & Zhong, 2015).

Irim-sirim va afsonalar o'zbek va ingliz to'y madaniyatining bir qismi

bo‘lganligi sababli kundalik hayotda mavjud bo‘lgan va hozir ham mavjud (Clarke, Oreffice & Quintana-Domeque, 2019). Ular ko‘pincha o‘zlarining haqiqiyligi haqida o‘ylamasdan avtomatik ravishda tanqidsiz qabul qilinadi.[7]

O‘zbek va ingliz to‘y marosimlari haqida ko‘plab afsonalar va irim-sirimlar mavjud va ularning aksariyati omad yoki omadsizlikni bashorat qiladigan voqealar yoki alomatlariga asoslangan.[8]Ba‘zi afsonalar ijobiy va salbiy ma‘noga ega. Barcha irim-sirimlar singari, to‘y afsonalari ham ilmiy asosga ega emas; ammo, har qanday holatda ham ularni yodda tutish hech qachon zarar qilmaydi. [9]Masalan, ingliz to‘yi bilan bog‘liq irim-sirim: “The month in which the wedding ceremony will take place should contain the letter ‘r.’”/ To‘y marosimi o‘tkaziladigan oyda “r” harfi bo‘lishi kerak. Keltirilgan irim-sirimning ma‘nosi to‘y uchun yaxshi va yomon oylar bor va inglizlar ushbu kunlarga qarab to‘y kunlarini belgilaydi. Ushbu irim-sirimning sababli keltlar davriga borib taqaladi, keltlar to‘y kuni uchun shanba va yakshanba kunlarini hisoblashgan va ularni ishonchlari astrologiyaga va numerologiyaga asoslangan.

O‘zbekistonda yil davomida to‘y bo‘lib o‘tadi, lekin kuz faslini o‘zbeklar afzal ko‘radi sababi kuzda havo harorati mo‘tadil va meva-sabzavotlar pishgan bo‘ladi. O‘zbek to‘y marosimlari uchun chorshanba, shanba va yakshanba kuni to‘ylar kuni hisoblanadi, sababi masalan, chorshanba kuni musulmon dinida aziz kun hisoblanadi va barcha ezgu niyatlar ro‘yobga oshadi, deb ishoniladi. To‘y marosimi bilan bog‘liq irim-sirim: *“The happiest wedding date is Christmas.”* To‘yning eng baxtli sanasi – Iso Payg‘ambarning tug‘ilgan kuni ushbu irimning tarixi diniy e‘tiqodlik bilan bog‘liq va to‘y marosimlarda odamlar diniy tarfdan to‘y kuni yaxshi va omadli kun tanlashga bog‘liqdir.[10]

Schulkind va Shapiroga ko‘ra, (2014) ingliz irim-sirimlar turli xil ijtimoiy vaziyatlarda odamlarning xatti-harakatlariga ta‘sir qiladi. Misol uchun, ingliz aholisi 13-kunni hamda juma kunini baxtsiz kun deb hisoblashadi va bu kunga to‘y

marosimlari belgilanmaydi. O‘zbek oilalarida esa aksincha, juma muborak kun sanaladi. Bundan tashqari, Britaniyaning o‘zida mintaqaviy irim-sirimlar mavjud, masalan, Somersetda juma kuni kim to‘shakni aylantirsa, dengizdagi kemalarni aylantiradi, deb ishonishadi.[11]

Turli mintaqalarda kiyim bilan bog‘liq irim-sirimlar bu moddiy madaniyat belgisi sifatida qabul qilinadi.[12] Masalan:”The bride’s wedding outfit should include something new, something old, something white, something blue, and something borrowed.”/Kelinning to‘y libosida yangi narsa, ya‘ni eski narsa, ko‘k narsa va qarzga olingan narsalar bo‘lishi kerak. Keltirilgan kelinning libosi bilan bog‘liq irimlarning asosiy mazmuni quyidagicha: kelinning libosidagi biror yangi narsa – bu turmushdagi farovonlik ramzi, biror eski narsa – bu oila va do‘stlardan yordam, biror oq narsa – bu poklik va tozalik ramzi, ko‘k narsa – bu sodiqlik ramzi va qarzga olingan narsa – yangi oilaning mehribonligidir. O‘zbek to‘y marosimlarida kelin oq libosda bo‘lishi urf sanaladi va oq rang odatda poklik, bokiralik va tozalik ma‘nosiga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonazarova N. Etnografizmlar xalq madaniyatini ifodalovchi muhim lingvistik birlik sarchashmalari. Toshkent: 2019.- 38 b.
2. E.E. Fliginskikh, Towards a Definition of a Term ‘Superstition’ [J]. Vestnik of Chuvash State University, 2014.-p 153-157.
3. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharq, 2001.-85 b.
4. Oxford learner’s dictionary. Oxford university press.-p 573.
5. Foster KR, Kokko H. The evolution of superstitious and superstition-like behaviour. Proc Biol Sci. 2009 Jan 7; 276(1654): p 31.
6. Vyse SA. Believing in magic. The psychology of superstition. Oxford, UK: Oxford University Press. 2000.- p 63.

7. Ono K. Superstitious behavior in humans. J Exp Anal Behav. 1987.- May;47(3):p 261-71.
8. Block, L., & Kramer, T. The effect of superstitious beliefs on performance expectations. Journal of the Academy of Marketing Science, 2009. -37(2), p 161–169.
9. Kramer, T., & Block, L. Nonconscious effects of peculiar beliefs on consumer psychology and choice. Journal of Consumer Psychology, 21(1), 2011.-p 101–111.
10. Antipov, E. A., & Pokryshevskaya, E. B. Are buyers of apartments superstitious? Evidence from the Russian real estate market. Judgment and Decision Making, 10(6), 2015.-p.590–592.
11. Lola Uzakova “O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TO'Y BILAN BOG'LIQLEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI: INGLIZ TO'Y MAROSIMIMLARINI O'RGANISH” "Экономика и социум" №3(106) 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru), стр 329-332
12. Lola Uzakova “O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TO'Y BILAN BOG'LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI: INGLIZ TO'Y MAROSIMIMLARINI O'RGANISH” SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2023/3 (97) <https://buxdu.uz/> 99-102 b.